Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SOVET ITTIFOQIDA GUPVI TIZIMINING SHAKLLANISHI VA HARBIY ASIRLAR JAMLOQLARI FAOLIYATI

MUHAMMADALI NAZIRXUDJAYEV*
PhD, Andijon davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi Andijon, O'zbekiston Respublikasi
✉ ilyosbekxoshimov8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqida Harbiy asirlar va internirlanganlar bosh boshqarmasi (GUPVI) tizimining shakllanishi, harbiy asirlar jamloqlarining rivojlanishi, ularga asirlarni joylashtirish tamoyillari hamda urushdan keyingi repatriatsiya jarayonlari ilmiy adabiyotlar va arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

Ikkinchi jahon urushi, GUPVI, harbiy asirlar, jamloqlar, NKVD, repatriatsiya, internirlanganlar, Sovet Ittifoqi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743177

KIRISH.

Tarixiy jarayonlarni ilmiy jihatdan xolis va haqqoniy yoritish tarixshunoslikning eng muhim metodologik masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki tarixiy voqealarni talqin qilish tadqiqotchining metodologik yondashuvi, foydalanilgan manbalar va ularning tanqidiy tahliliga bevosita bog'liq. Shu bois, tarixiy haqiqatga erishish faqat turli manbalarni qiyosiy o'rganish va ularga tanqidiy yondashish orqali mumkinligi ta'kidlanadi [11, B. 447–449]. Ushbu yondashuv Ikkinchi jahon urushi davrida Sovet Ittifoqidagi harbiy asirlar jamloqlari tarixini tadqiq etishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Harbiy asirlar va GUPVI jamloqlari faoliyati tarixshunoslikda turli jihatlarda tadqiq etilgan. Tarixiy jarayonlarni xolis yoritishda manbalarni tanqidiy tahlil qilish va qiyosiy metodning muhimligi Xudoyorov va Ro'ziboyev tomonidan asoslab berilgan [11, B. 447–449]. GUPVI tizimining shakllanishi, jamloqlar sonining o'sishi va tashkiliy tuzilishi M.M. Zagorulko nashrida [2, S. 31–34], deportatsiya qilingan aholini joylashtirish siyosati Abduraximova va hammualliflar tomonidan [3, S. 33–34], harbiy asirlarning soni va repatriatsiyasi G.F. Krivosheyev tadqiqotlarida [4, ll. 250–252] tahlil qilingan. GUPVIning tashkiliy tizimi hamda repatriatsiya jarayonlari NKVD hujjatlari va hujjatlar to'plamlarida yoritilgan [5, S. 138; 6, ll. 121–125; 7, l. 19; 8, S. 313–316]. Biroq mavjud tadqiqotlarda alohida jamloqlarning tashkil etilishi va hududiy faoliyati yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur maqolada ushbu masala arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqida harbiy asirlar va jamloqlari boshqarmasi tarkibidagi yuzlab jamloqlar tuzilmasi o'ziga xos tarzda shakllangan. Bu tashkilotni mamlakat ichidagi kichikroq davlat deb ham atashgan. Mazkur jamloqlarda mamlakatning g'arbiy va sharqiy taraflarida olib borilgan urushlar natijasida asirlikka tushgan sobiq askar va zobitlar saqlangan. Bulardan tashqari, ko'plab jamloqlarda turli sabablarga ko'ra qamalgan mahkumlar saqlangan.

Jamloqlardagi asirlarning hammasini ham raqib tomon askari yoki zobiti bo'lgan deb aytib bo'lmaydi,

sababi sovet qo‘shinlari Yevropani fashistik kuchlardan ozod qilib g‘arbga borar ekan, Davlat mudofaa komitetining 1944 yil 16 dekabrdagi 7161ss-sonli qarori asosida, markaziy va sharqiy Yevropada istiqomat qilayotgan 17 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan erkaklarini, 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan mehnatga yaroqli nemis millatiga mansub oddiy xalq vakillarini SSSRga ishlatish maqsadida surgun qilishgan. Bu yerda ular ishchi mehnat jamloqlariga joylashtirilgan [1, B. 33]. Yuqoridagi buyruqni ijrosi natijasida, 1945 yilning yanvar-aprel oylarida Sovet Ittifoqiga jami 208 239 ta nemis va boshqa millat vakillari surgun qilingan bo‘lib, bularning 157 101 tasi erkak, 51 138 tasi ayollardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, nemis hukumatiga xizmat qilgan mahalliy amaldor davlat vakillaridan 61 573 kishi ham Sovet davlatiga surgun qilingan [2, B. 34].

Bunday qilishning sabablaridan biri, nemislar foydasiga xizmat qiladigan kuchni har ehtimolga qarshi bartaraf etish bilan birga, SSSR o‘ziga kelgan zararni qoplashni maqsad qilib olgan va ushbu zararni keltirib chiqargan xalqlar o‘z mehnatlari bilan to‘ldirishi kirak deb tushunilgan. Xuddi shunday holat Sovet Ittifoqining Kvantun armiyasi bilan olib borilgan janglari natijasida, asirlikka olingan yapon asirlari qatorida koreys, mo‘g‘ul, xitoy va boshqa millat vakillari ham bo‘lganligi buning yaqqol misol bo‘la oladi.

Mamlakatda harbiy asirlar jamlog‘iga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, 1943 yildagi Stalingrad uchun olib borilgan janglarda nemislarning mag‘lubiyatidan so‘ng namoyon bo‘la boshlagan. Stalingrad uchun janglarda nemislar tomonidan 151 246 ta askar va zobitlar sovetlar qo‘liga asir tushgan. Harbiy asirlar bosh boshqarmasining hujjatlarida keltirishicha, 1943 yil 25 fevralda jamloqlarda 256 918 ta asirlar saqlangan bo‘lib, bulardan 199 090 kishi ishga yaroqli bo‘lgan bo‘lsa, 15 aprelida bu ko‘rsatkich 291 856 kishiga yetgan. 1943 yil may holatiga ko‘ra, SSSRda 35 ta jamloqlar faoliyat olib borgan. 1944 yilning boshlarida 100 mingdan ortiq harbiy asirlar 52 jamloqqa joylashtirilgan [3, B. 31-33].

Asirlarni jamloqlarga joylashtirishda asosan, ularning etnik kelib chiqishiga e’tibor berilgan. Shu asosida, sovuq iqlimga moslashmagan italyan asirlarini mamlakatning issiq o‘lkalariga — Janubiy Qozog‘iston SSRning Chimkent viloyati Paxta-Orol tumanidagi 29-jamlog‘iga va O‘zbekiston SSRning Andijon viloyatidagi 26-harbiy asirlar jamlog‘iga joylashtirilgan. Nemis millatiga mansub asirlar esa shu paytning o‘zida Tatariston ASSR hududidagi Yelabuga jamlog‘iga joylashtirilgan. 1945 yilda 222 ta jamloq va ularning 2713 ta bo‘linmalari qaytadan tashkil etilgan, talabga javob bermaydigan 99 ta jamloq va 1080 ta jamloq bo‘linmalari tarqatib yuborilgan [4, B. 32, 34].

Nemislar bilan olib borilgan urush natijasida Sovet armiyasi tomonidan qo‘lga olingan jami asirlar soni 1945 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, 2 778 305 kishini tashkil etib, bulardan shu yilning 30 dekabrigacha 1 127 269 ta asirlar ozod qilinib, o‘z vatanlariga jo‘natib yuborilgan [5, B. 250-252]. 1946 yilga kelib, Sovet davlatida 3200 dan ortiq harbiy asirlar jamloqlari turkumiga kiruvchi turli tashkilotlar, jumladan, 267 ta jamloq, 2376 ta jamloq bo‘limlari, 162 ta maxsus gospitallar, 421 ta ishchi batalyonlar va o‘nlab maxsus tashkil etilgan yopiq turdagi tashkilotlar faoliyat ko‘rsatgan. Jamloqlarning 199 tasi g‘arb armiyasining askarlari va 11 tasi katta lavozimdagi zobitlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, 49 tasi Kvantun armiyasi askarlari uchun mo‘ljallangan, 8 tasi aralash turdagi asirlar jamlog‘i, shuningdek, 6 ta maxsus operativ obyektlarda faoliyat yuritgan harbiy asirlar jamloqlaridir. Bu vaqtda SSSRda 1 651 036 ta g‘arb armiyasi asirlari, shulardan, 1 103 233 ta nemislar, 233 851 ta vengerlar, 68 616 ta avstriyaliklar, 52 494 ta rumin va boshqa xalq vakillari bo‘lgan. Shuningdek, Kvantun armiyasining 500 mingga yaqin yapon harbiy asirlari ham bo‘lgan [6, B. 138].

Urush natijasida qo‘lga olingan asirlarni o‘z vatanlariga qaytarish, urush nihoyasiga yetganining birinchi oylaridanoq boshlangan. Xususan, janglarda turli jarohatlar natijasida nogiron bo‘lib qolgan yoki ishga yaroqsiz asirlarni uyga jo‘natish ishlari amalga oshirilgan. Shu maqsadda, Davlat Mudofaa Komiteti va SSSR Ichki ishlar xalq komissariyati boshlig‘i L.P. Beriya tomonidan I.V. Stalinga yuborilgan 1945 yil 10 avgustdagi xatida urush maydonlarida qo‘lga olingan 708 000 kishi nogironligi va mehnat qilishga yaroqsizligi sababli, ularni jamloqlardan ozod qilib uylariga jo‘natib yuborish taklifi berilgan. Bu taklif ma’qullangach, 1945 yil 14 avgustda IIXK boshlig‘i L.P. Beriya tomonidan berilgan buyruqqa ko‘ra, 708 000 kishi jamloqlar va maxsus gospitallardan ozod qilinib, o‘z vatanlariga qaytarilgan. Aytib o‘tish joizki, mazkur tarkibda asosan oddiy askar va unter-ofitserlar bo‘lgan. Ular orasida 412 000 ta nemis, 150 000 ta venger, 32 600 ta chexoslovakiyaliklar (chex, slovak, rusinlar), 30 000 ta rumin, 30 000 ta avstriyalik, 19 800 ta polyak, 19 640 ta italyan, 9 500 ta yugoslavakiyaliklar (serb, xorvat, bosniyts, slovenslar), 1 800 ta belgiyalik, 1 300 ta golland, 720 ta lyuksemburg,

280 ta bolgar, 230 ta datchan, 40 ta amerikalik, 31 ta shved, 24 ta shveytsariyalik, 20 ta yunon va 15 ta inglizlar bo‘lgan [7, B. 121–125].

1945 yil 17 sentabrda 1600 nafar avstriyalik asirlar vatanlariga jo‘natib yuborilgan [8, B. 19]. Albatta, Ikkinchi jahon urushida qo‘lga olingan asirlarni asirlikdan ozod qilish uchun hujjatlar talab etilgan, ba’zi hollarda hukumat a’zolaridan tilxat olish bilan yoki haqiqatdan ham asirning kasal ekanligini isbotlovchi ma’lumotnomani taqdim etishi kerak bo‘lgan va bu jarayonlar vaqt talab qilgan. Shuning uchun ham asirlarni uylariga qaytarish jarayoni ko‘pincha cho‘zilib ketgan. Asirlarni vatanlariga qaytarilishini so‘rab ko‘pincha davlat rahbarlari rasmiy xat bilan chiqishgan. Bunga misol qilib, Vengriya davlatining 1944-1945 yillardagi bosh vaziri B.D. Mikloshning Ittifoq nazorat komissiyasi boshlig‘i K.YE. Voroshilovga yozgan xatini aytib o‘tsa bo‘ladi [9, B. 313–316].

Shuningdek, fashistlar armiyasining katta zobitlari va uning maxsus (SS, gestapo va boshqa) bo‘linmalarida xizmat qilgan harbiylari bu ro‘yxatga kiritilmagan. Bu asirlar SSSR va uning ittifoqdosh davlatlari tomonidan sud hukmidan keyin tirik qolganlari, jazo muddatlarini o‘tab bo‘lganidan so‘nggina vatanlariga qaytish imkoniyatiga muvaffaq bo‘lishgan.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi davrida GUPVI tizimi Sovet Ittifoqining harbiy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga xizmat qilgan yirik boshqaruv tizimiga aylandi. Harbiy asirlarni joylashtirish va ulardan mehnat resursi sifatida foydalanish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Urush tugagach esa repatriatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo‘lsa-da, u siyosiy va huquqiy omillar ta’sirida uzoq davom etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. *Карнер С.* Архипелаг ГУПВИ: Плен и интернирование в Советском Союзе. 1941–1956 г / перевод с немецкого О. Асписовой. – Москва: Наука, 2002. – С. 33.
2. *Военнопленные в СССР.* 1939–1956. Документы и материалы / сост. Загорулько М.М., Сидоров С.Г., Царевская Т.В.; под ред. Загорулько М.М. – Москва: Логос, 2000. – С. 34.
3. *Военнопленные в СССР.* 1939–1956. Документы и материалы / сост. Загорулько М.М., Сидоров С.Г., Царевская Т.В.; под ред. Загорулько М.М. – Москва: Логос, 2000. – С. 31-33.
4. *Военнопленные в СССР.* 1939–1956. Документы и материалы / сост. Загорулько М.М., Сидоров С.Г., Царевская Т.В.; под ред. Загорулько М.М. – Москва: 2013. – С. 32, 34.
5. *ГАРФ* (Государственный архив Российской Федерации). – Фонд 9401. – Опись 1. – Дело 2227. – Лл. 250-252.
6. *Кузьминых А.Н*. Органы и учреждения военного плена и интернирования второй мировой войны в СССР (1939–1956 гг.). – Вологда: ВИПЭ ФСИН России, 2013. – С. 138.
7. *ГАРФ* (Государственный архив Российской Федерации). – Фонд 9401. – Опись 1. – Дело 728. – Лл. 121–125.
8. *ГАРФ* (Государственный архив Российской Федерации). – Фонд 4459. – Опись 24. – Дело 133. – Л. 19.
9. *Венгерские военнопленные в СССР:* Документы 1941–1953 годов / Сост. Борисов Д.И., Варга Е.М., Воронцов В.Л. и др., под ред. А.Н. Артизов. – Москва: Росспэн, 2005. – С. 313–316.
10. *Xudoyorov N. M., Ro‘ziboyev S. S.* Tarixiy bilimda haqqoniylik va ob’ektivlik muammosi // O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti 90 yoshda: ta’lim va ilm-fan markazi: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – B. 447–449.